

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/27.02.2020F.72.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**RESPUBLIKA MA'NAVIYAT VA MA'RIFAT MARKAZI HUZURIDAGI
IJTIMOIY-MA'NAVIY TADQIQOTLAR INSTITUTI**

IBOTOVA NASIBA KOMILOVNA

**IBROHIM MO'MINOV ILMIY-FALSAFIY MEROSINING
UMUMINSONIY AHAMIYATI**

09.00.03 – Falsafa tarixi

**FALSAFA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2023

**Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по философским наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on
philosophical sciences**

Ibotova Nasiba Komilovna

Ibrohim Mo‘minov ilmiy-falsafiy merosining
umuminsoniy ahamiyati 3

Иботова Насиба Комиловна

Общечеловеческая значимость научно-философского
наследия Ибрагима Муминова..... 23

Ibotova Nasiba Komilovna

The universal significance of scientific and philosophical heritage
of Ibragim Muminov 43

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ
List of publications works 48

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/27.02.2020F.72.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**RESPUBLIKA MA'NAVIYAT VA MA'RIFAT MARKAZI HUZURIDAGI
IJTIMOIY-MA'NAVIY TADQIQOTLAR INSTITUTI**

IBOTOVA NASIBA KOMILOVNA

**IBROHIM MO'MINOV ILMIY-FALSAFIY MEROSINING
UMUMINSONIY AHAMIYATI**

09.00.03 – Falsafa tarixi

**FALSAFA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.1.PhD/Fal890 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Yunusova Gulandom Samiyevna
falsafa fanlari doktori, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Safarova Nigora Olimovna
falsafa fanlari doktori, professor

Xandamova Ma'rifat Akramovna
falsafa fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Buxoro davlat tibbiyot instituti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/27.02.2020.F.72.08 raqamli ilmiy kengashning 2023-yil "29" iyul soat 9:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200114, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (65) 221-29-14; faks: (65) 221-57-27, e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz)

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (314 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 200114, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (65) 221-25-87.)

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil "14" iyul kuni tarqatildi.
(2023-yil "14" iyul dagi 17 raqamli reyestr bayonnomasi.)



Navro'zova G. N.

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi,
falsafa fanlari doktori, professor

Sharipov A.Z.

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash kotibi,
falsafa fanlari doktori, professor

Sharipova O.T.

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,
falsafa fanlari doktori, dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Jahonda jadal sur'atlar bilan kechayotgan globallashuv jarayonlari dunyo miqyosida kechayotgan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hodisalar sharq xalqlari mutafakkirlarining boy ma'naviy merosida ifodalangan ilmiy-falsafiy g'oyalarini axloqiy qadriyat sifatida insoniyat ongiga singdirishni talab etmoqda. Qadimgi Sharq allomalarining intellektual boyligi dunyo sivilizatsiyasining barcha bosqichlarida insoniyatning ma'naviy, axloqiy, aqliy salohiyatini oshirishda muhim omil bo'lib, har bir xalqning o'zligini anglash yo'lida muhim omil bo'lgan ma'naviy merosni yangi kun nuqtayi nazaridan talqin va tahlil etish, undan amaliyotda foydalanishning zamonaviy usullarini ishlab chiqish va yangi bosqichga ko'tarish dolzarb masalalardan biridir. Shu nuqtayi nazardan I.Mo'minov falsafiy merosining nazariy-metodologik, g'oyaviy, ma'naviy-ma'rifiy kontekstda tadqiq etish hamda ijtimoiy munosabatlar tizimini tartibga solishga oid falsafiy xususiyatlarini ochib berish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Dunyo ilm-fanida ilmiy-nazariy merosni puxta o'rganish, targ'ib etish, yosh avlodni milliy qadriyat va an'analarga sadoqat, ehtirom ruhida tarbiyalashga oid fundamental tadqiqotlar olib borilmoqda. Yoshlar dunyoqarashini kengaytirish, milliy-ma'naviy qadriyatlarni ular ongiga singdirish, mantiqiy-falsafiy mushohadalarini yuksaltirish muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu borada inson kamolotining sadoqat, sabr-toqat mezonlari, jamiyat taraqqiyoti tizimida ziyolilarning mavqeyini oshirish to'g'risidagi dunyoviy qarashlarini o'rganishga bo'lgan zarurat yanada ortib bormoqda. Akademik olim I.Mo'minov ilmiy-falsafiy merosida ulug' ajdodlarimizning ezgu g'oyalarini tadqiq etish, ilmiy kashfiyotlari va tamaddunga asos bo'lgan ixtirolarini keng jamoatchilikka tanishtirish – o'zligimizni anglash sari qo'yilgan dadil qadam bo'lib, unda ilgari surilgan ijtimoiy faollik, milliy o'zlikni anglash, tarix haqiqati kabi gumanistik g'oyalarning yosh avlodning ma'naviy dunyoqarashini rivojlantirishdagi o'rnini tadqiq etish zarurati ortib bormoqda.

Mamlakatimizda yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida ma'naviy barkamol etib tarbiyalash, yoshlarni ma'nan yetuk va aqlan salohiyatli kelajagimiz bunyodkorlari etib shakllantirish bo'yicha islohotlar jadal suratlar bilan olib borilmoqda. “Darhaqiqat, o'tmishda qancha-qancha sinov va qiyinchiliklarga duch kelmasin, Buxoroyi sharifning ilm-ma'rifat, madaniyat va san'at daryosi hech qachon to'xtagan emas. Bu ko'hna yurtida tug'ilib ijod qilgan Ahmad Donish, Abdurauf Fitrat, Fayzulla Xo'jayev, Sadridin Ayniy singari ko'plab ma'rifat fidoyilarining ibratli hayoti bugungi kunda ham yurtimizda yangi jamiyat barpo etish, barkamol avlodni tarbiyalash, ma'naviyatimizni yuksaltirishda bizga beqiyos kuch bag'ishlab kelmoqda”¹. Ayniqsa, akademik Ibrohim Mo'minov faoliyati va ilmiy-falsafiy merosi asosida ma'naviy yetuk shaxsni tarbiyalash hamda zamonaviy ta'lim-tarbiyani shakllantirishga oid konstruktiv taklif-tavsiyalar ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

¹ Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қураимиз. -Тошкент: «Ўзбекистон», 2017. – Б.146.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-sonli “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta‘lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” farmonlari, 2017-yil 24-maydagi PQ-2995-sonli “Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-sonli “Ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarorlari, shuningdek, 2021-yil 18-yanvardagi 23-sonli “O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” qarori hamda sohaga oid boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” nomli ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jahon ilmiy jamoatchiligi tomonidan akademik Ibrohim Mo‘minovning ilmiy-falsafiy merosi va ibratomuz hayot yo‘li bir qadar tadqiq etilgan. Jumladan, B.Lunin, Jeyms Kristov, Edward A.Olvort, Grigol Ubiria, Olivier Roy, Iva Manova tadqiqotlarida akademik I.Mo‘minovning faoliyati va ilmiy-falsafiy merosi haqida ma‘lumotlar berib o‘tilgan. Ularda I.Mo‘minov ilmiy faoliyatiga yuqori baho berilib, olimning O‘zbekistonda sovet falsafa fanining tashkilotchisi sifatidagi roli yevropalik tadqiqotchilarning tadqiqot obyekti bo‘lganligini ta’kidlangan².

Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi mamlakatlarida S.Tolstov, T.Jdanko, S.Abramzon, N.Kislyakovlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar akademik I.M.Mo‘minov faoliyatining yodga olingani bilan tarixiy ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, qozoq sovet ensiklopediyasida I.Mo‘minovning Amir Temur haqidagi tahlillaridan foydalanilganligi quvonarli holdir³.

XX asr o‘zbek falsafasi taraqqiyotida Ibrohim Mo‘minovning o‘rni, uning ilmiy-falsafiy merosini o‘rganish muammosi XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab o‘zbek faylasuflari diqqat markaziga tushgan. Mazkur masala S.Shermuhamedov, A.Djalolov, H.Ziyoyev, H.Aliqulov, R.Nosirov, A.Valiyev,

² Лунин Б.В. И.М.Муминов и журнал "Общественные науки в Узбекистане" // *Общественные науки в Узбекистане*, №12, 1998, с.52; James Cristov. Review of “Uzbek Soviet ensiklopediyasi, Vols. 1-7: Ä-Nikelin. by I.M.Muminov”, // *Slavic Review* Vol. 37, No. 1 (mar., 1978).; Edward A.Allworth, *The modern Uzbeks. From the fourteenth century to the present. A cultural history.* Stanford: Hoover institution press, 1990, p. 245; Grigol Ubiria, *Soviet Nation-Building in Central Asia: The Making of the Kazakh and Uzbek nations*, Routledge, 2016, p. 225; Olivier Roy, *The new Central Asia. The creation of nations.* New York university press, 2000, p. 168; Iva Manova, *The Creation of Philosophical Nations under the Soviet Regime: “Restoring the Historical Truth” about the Peoples of Asia in Philosophy in The Territories of Philosophy in Modern Historiography* Edited by Catherine König-Pralong, Mario Meliado, Zornitsa Radeva, Brepols, 2019, s. 105-130

³С.П.Толстов, Т.А.Жданко (с участием М.А.Итиной и Ю.А.Рапопорта. Для некоторых разделов использованы предоставленные АН Узбекской ССР материалы И.М.Муминова и М.Г.Вахабова)// *Народы Средней Азии и Казахстана т.1. Под редакцией С.П.Толстова, Т.А.Жданко, С.М.Абрамзона, Н.А.Кислякова.* Москва: Изд. АН СССР, 1962. Qarang/ Қазақ совет энциклопедиясы. Алма-Ата, 1976

M.Xayrullayev, M.Abdullayeva, N.Safarova, F.Nizamov, Sh.Samatov, J.Xolmo‘minov, O.Muhammadiyeva, G.Navro‘zova, G.Yunusova singari tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan, monografiya, risola va maqolalar e‘lon qilingan⁴.

Qayd etilgan tadqiqotlarda akademik Ibrohim Mo‘minovning hayoti va ilmiy merosi bilan bog‘liq ba‘zi bir masalalar o‘z ifodasini topgan. Biroq, Ibrohim Mo‘minov ilmiy merosi hamda falsafiy fikr rivojiga qo‘shgan hissasi, qarashlarining ijtimoiy-falsafiy mohiyatini o‘rganish borasida hozirgacha maxsus izlanishlar olib borilmagan. Shu bois mazkur dissertatsiyada Ibrohim Mo‘minovning hayoti va ijodi, falsafiy qarashlari hamda ijtimoiy fikrlar taraqqoyotiga qo‘shgan hissasi, ma‘naviy jasoratining yosh avlod tarbiyasidagi ahamiyati, gumanistik axloqi tadqiq etilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat markazi Ijtimoiy-ma‘naviy tadqiqotlar instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining I-2015-1-4 “Milliy g‘oyaning innovatsion targ‘ibot texnologiyalari va yoshlarni axborot-psixologik xurujlaridan himoya qilishning zamonaviy usullari” hamda I-2016-133 “Milliy tarbiya va yoshlar dunyoqarashini shakllantirish” mavzulari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Ibrohim Mo‘minov ma‘naviy merosining ijtimoiy-siyosiy, falsafiy qarashlar taraqqiyotidagi o‘rni va umumbashariy ahamiyatini asoslab berishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

I.Mo‘minov ilmiy merosini falsafiy, ma‘naviy-axloqiy mazmun bilan boyitgan Abu Rayhon Beruniy, Ali Qushchi, Mirzo Abdulqodir Bedil kabi mutafakkirlar merosini qiyosiy o‘rganish;

Ahmad Donishning taraqqiyparvarlik g‘oyalari jadidchilikka asos bo‘lganligi va bu g‘oyalarning I.Mo‘minovga ta‘sirini analitik tahlil etish va Sharq falsafiy tafakkuri rivojidadagi ahamiyatini asoslab berish;

akademik Ibrohim Mo‘minov falsafiy qarashlaridagi ma‘naviy-axloqiy qadriyatlarining tarbiyaviy xususiyatini ochib berish;

shaxs kamolotida ilmning o‘rni, nafs tarbiyasi va ma‘naviy poklik, kasb-hunar egallash, ma‘rifatga intilish kabi tamoyillarning Uchinchi Renessans poydevorini mustahkamlashdagi o‘rnini tadqiq etish;

⁴ С.Шермухамедов. И.Мўминовнинг ҳаёти ва фаолияти ҳақида //Ўзбекистонда ижтимоий фанлар 12-1998. 29-32-б , А.Джалалов. Иброҳим Мўминов – аллома, арбоб ва инсон. 32-36-б; Х.Зиёев. Амир Темурни “оқлашда” Иброҳим Мўминовнинг роли. 36-42-б; Х.Аликулов. И.Мўминов асарларида XIV-XV асрлардаги Мовароуннахр ижтимоий-фалсафий фикрини тадқиқ қилиниши. 42-45-б; Р.Носиров, А.Шарипов. И.М.Мўминов асарларида Берунийнинг табиий-илмий ва фалсафий қарашлари талқини. 45-49-б; М.Хайруллаев, Р.Носиров. И.М.Мўминов. Ўзбекистондаги табиий-илмий ва ижтимоий-фалсафий тафаккур тарихидан лавҳалар. 78-79-б; Ж.Холмўминов. Бедилни англаш завқи, О.Мухаммадиева. Мирзо Абдулқодир Бедилнинг ижтимоий-ахлоқий қарашлари Т.: “Фан ва технология” – 2010. Наврўзова Г, Юнусова Г. Иброҳим Мўминов тасаввуф хусусида.//Иброҳим Мўминов фалсафий ўқишлари. Бухоро. 2008. 8-б; Юнусова Г. “Наводир ул вақоъ”да таваккул назарияси талқини” // Қомусий мутафаккир. Аҳмад Донишнинг “Наводир-ул-вақоъ” асари – адабий, фалсафий, ахлоқий, маънавий манба ва унинг замонавий моҳияти” мавзудаги Республика анжумани материаллари. Бухоро, 2017. 101-б; Абдуллаева М. Академик И.Мўминовнинг фан равнақи йўлида қўшган бекиёс ҳиссаси. 37-39-б;

I.Mo‘minovning ma‘naviy-axloqiy qadriyatlarga oid qarashlari, jasoratining umuminsoniy mohiyatini ochib berish hamda yoshlarda g‘oyaviy-mafkuraviy immunitetni mustahkamlashdagi rolini asoslab berishdan iborat.

Tadqiqotning obyekti sifatida I.Mo‘minovning ilmiy-falsafiy merosini o‘rganishga qaratilgan tadqiqotlar tanlangan.

Tadqiqotning predmetini I.Mo‘minovning ilmiy merosi va falsafiy, ijtimoiy-siyosiy, qarashlaridagi ma‘naviy-axloqiy, umumbashariy qadriyatlarga oid g‘oyalarini tadqiq qilish tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada tarixiylik va mantiqiylik, analiz va sintez, qiyosiy tahlil, tizimli-funksional yondashuv, dialektik va sinergetik tahlil, germenevika kabi ilmiy bilish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Ibrohim Mo‘minov tug‘ilib-o‘sgan, voyaga yetgan ziyolilar muhiti davr kontekstida o‘rganilib, alloma dunyoqarashining shakllanishida Ahmad Donishning roli katta ekanligi argumentlash asosida isbotlangan hamda shaxs va jamiyat o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlar tizimini tartibga solishda akademik olimning ijtimoiy-falsafiy, axloqiy qarashlari umuminsoniy xarakterga egaligi qiyosiy tahlil asosida aniqlangan;

Ibrohim Mo‘minovning ilmiy-falsafiy merosida Mirzo Abdulqodir Bedil va Abu Rayhon Beruniy ijodining umumestetik va fan hodisasi sifatida o‘zbek falsafasida birinchi marta ilmiy ahamiyati tavsiflab berilgan;

Ibrohim Mo‘minov ma‘naviy merosida ilgari surilgan ijtimoiy faollik, milliy o‘zlikni anglash, tarix haqiqati kabi gumanistik g‘oyalari Amir Temur shaxsiyati va Ali Qushchi ilmiy merosi misolida yosh avlodning ma‘naviy dunyoqarashini yanada rivojlantirishga qaratilganligi mantiqiy asoslangan;

Ibrohim Mo‘minovning ma‘naviy-axloqiy, ilmiy-tarbiyaviy, ijtimoiy-falsafiy, siyosiy qarashlari zamonaviy ta‘lim-tarbiyani shakllantirishda konstruktiv, ya‘ni samaraviy va o‘zaro uyg‘unlashtiruvchi muhim omil ekanligi falsafaning atributiv kategoriyalari vositasida dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Ibrohim Mo‘minov fikr va g‘oyalarida ayni o‘zi yashab turgan davr talablaridan ilgarilab ketish, strategik tahlil, ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotda dolzarb va muhim masalalarni ko‘tarib chiqish orqali ularning strukturaviy yechimining ham ko‘rsatilishi ochib berilgan;

Ibrohim Mo‘minovning falsafiy qarashlarida islohotchilik g‘oyalarining ijtimoiy-falsafiy mohiyati va ijtimoiy hayotda yosh avlod kamolotiga bo‘lgan munosabat masalalari falsafiy nuqtayi nazardan asoslab berilgan;

Akademik Ibrohim Mo‘minovning ilmiy-falsafiy merosidagi falsafiy tahlillar olim asarlarining mantiqiy tuzilishga egaligi, ilm-fan va falsafa fani rivojiga munosib hissa qo‘shgani asoslangan hamda ulardan ilm-fanni rivojlantirishda foydalanish mumkin bo‘lgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot jarayonida qo‘llanilgan nazariy qarashlar, tadqiqot usullari va yondashuvlar rasmiy manbalardan olinganligi, nashr etilgan ilmiy maqolalar, respublika va xalqaro konferensiyalarda sinovdan o‘tkazilganligi, tadqiqot ishi natijalari bo‘yicha berilgan xulosalar asosida

takliflar ishlab chiqilgan bo'lib, tavsiyalar amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Ibrohim Mo'minovning ilmiy-falsafiy merosida ilgari surilgan konseptual g'oyalar va umumnazariy xulosalar ijtimoiy-gumanitar fanlar tizimidagi mantiq, pedagogika, falsafa, falsafa tarixi, jadidchilik falsafasi, tarix fanlari doirasida amalga oshiriladigan tadqiqotlar va metodologik yondashuvlarni takomillashtirish jarayonida, shuningdek, nazariy-falsafiy g'oyalar, umumlashtirilgan ilmiy xulosalardan ijtimoiy falsafa, huquq falsafasi, etika-estetika, madaniyatshunoslik fanlarining nazariy-metodologik bazasini boyitishda, hamda falsafa sohasi bo'yicha mutaxassislarni o'qitishda I.Mo'minovning falsafiy qarashlarini o'rganishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan taklif-tavsiyalar xalqimizning tarixiy madaniy-merosi, milliy qadriyatlarini targ'ib qilishda, O'zbekiston Yoshlar ishlari agentligi, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi hamda fuqarolik jamiyati institutlarining ma'naviy-ma'rifiy dasturlari, o'quv-tarbiya bilan shug'ullanuvchi muassasalar faoliyati samaradorligini oshirishda, shuningdek, oliy ta'lim muassasalarida mavzu yuzasidan o'tiladigan fanlardan darslik va o'quv qo'llanmalar tayyorlashda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ibrohim Mo'minov ilmiy-falsafiy merosining umuminsoniy ahamiyatini tadqiq etish bo'yicha olingan natijalar asosida:

Ibrohim Mo'minov tug'ilib-o'sgan, voyaga yetgan ziyolilar muhiti davr kontekstida o'rganilib, alloma dunyoqarashining shakllanishida Ahmad Donishning roli katta ekanligi argumentlash asosida isbotlangan hamda shaxs va jamiyat o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlar tizimini tartibga solishda akademik olimning ijtimoiy-falsafiy, axloqiy qarashlari umuminsoniy xarakterga egaligiga doir xulosa va takliflardan O'zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vazirligi huzuridagi Yoshlar ishlari agentligining yoshlarning ajdodlar merosini o'rganish hamda ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirishga doir tadbirlarida, xususan, muntazam o'tkazilib kelinayotgan "Zakovat" va "Munozara" kabi intellektual o'yinlarining savollarini hamda ko'rik-tanlov, loyiha va targ'ibot tadbirlari senariylarini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vazirligi huzuridagi Yoshlar ishlari agentligining 2023-yil 17-martdagi 3-13-21-692-son ma'lumotnomasi). Natijada, mustaqil fikrlaydigan, qat'iy hayotiy pozitsiyaga ega bo'lgan yoshlarni tarbiyalash, mantiqiy fikrlash va mohirona munozara olib borish qobiliyatlarini rivojlantirish, notiqlik mahoratini yanada shakllantirishga xizmat qilgan;

Ibrohim Mo'minovning ilmiy-falsafiy merosida Mirzo Abdulqodir Bedil va Abu Rayhon Beruniy ijodining umumestetik va fan hodisasi sifatida o'zbek falsafasida birinchi marta ilmiy ahamiyatiga oid ilmiy-nazariy fikr-mulohazalar va taklif-tavsiyalardan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi tomonidan 2020-2022-yillarda imom-xatiblar uchun tashkil etilgan malaka oshirish kurslarining islom tarixi,

bag'rikenglik va uning dinlardagi mohiyati kabi mavzularda o'quv mashg'ulotlari materiallari mazmunini boyitishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazining 2023-yil 26-yanvardagi 02/37-son ma'lumotnomasi). Natijada, bugungi davrda yuksak insoniy g'oyalari va muqaddas qadriyatlarni o'zida ifoda etgan manbalarni tizimli asosda tadqiq etish, yoshlarning ruhiy-ma'naviy muhit va betakror meros asosida bilim va tajriba, kasb malakasini oshirish bo'yicha o'quv-uslubiy ishlarni amalga oshirish, kataloglar, albomlar, ilmiy-metodik manbalar bazasini boyitishga xizmat qilgan;

Ibrohim Mo'minov ma'naviy merosida ilgari surilgan ijtimoiy faollik, milliy o'zlikni anglash, tarix haqiqati kabi gumanistik g'oyalari Amir Temur shaxsiyati va Ali Qushchi ilmiy merosi misolida yosh avlodning ma'naviy dunyoqarashini yanada rivojlantirishga qaratilganligiga doir yangiliklar va xulosalardan O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutida bajarilgan FA-FI-005 "Qoraqalpoq folklorshunosligi va adabiyotshunosligi tarixini tadqiq etish" (2017-2020 yy) mavzusidagi fundamental ilmiy loyihani bajarishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutining 2023-yil 7-apreldagi 159/1-son ma'lumotnomasi). Natijada, Ibrohim Mo'minovning falsafiy qarashlarida islohotchilik g'oyalarining ijtimoiy-falsafiy mohiyati va ijtimoiy hayotda yosh avlod kamolotiga bo'lgan munosabat natijalari falsafiy nuqtayi nazardan rivojlantirishga xizmat qilgan;

Ibrohim Mo'minovning ma'naviy-axloqiy, ilmiy-tarbiyaviy, ijtimoiy-falsafiy, siyosiy qarashlari zamonaviy ta'lim-tarbiyani shakllantirishda konstruktiv, ya'ni samaraviy va o'zaro uyg'unlashtiruvchi muhim omil ekanligiga oid taklif-tavsiyalaridan O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi Buxoro viloyat teleradiokompaniyasining 2023-yilda efirga uzatilgan "Assalom, Buxoro", "Yonimizdagilar", "Najot bilimda" teleko'rsatuvlari hamda "Qadriyatlar – qadim beshigi" radioeshittirishlari senariylarini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi Buxoro viloyat teleradiokompaniyasining 2023-yil 13-martdagi 02-09-64-son ma'lumotnomasi). Natijada, Ibrohim Mo'minov ma'naviy merosida ilgari surilgan ijtimoiy faollik, milliy o'zlikni anglash, tarix haqiqati kabi gumanistik g'oyalari, Amir Temur shaxsiyati va Ali Qushchi ilmiy merosi misolida yosh avlodning ma'naviy dunyoqarashini yanada rivojlantirishga qaratilganligi to'g'risidagi ilmiy fikrlar teleko'rsatuvlar va eshittirishlar uchun tayyorlangan materiallarning mazmuni mukammallashuviga, ilmiy dalillarga boy bo'lishiga, ko'rsatuvlarning ilmiy ommabopligi ta'minlanishiga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 11 ta, jumladan, 8 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 20 ta ilmiy ish chop etilgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy

nashrlarida 5 ta maqola (xususan, 3 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda) nashr etilgan.

Tadqiqotning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan, hajmi 148 sahifadan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **“Kirish”** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, tadqiqot bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti, predmeti, usullari yoritilgan. Shuningdek, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, tadqiqot natijalarining ishonchliligi va ilmiy-amaliy ahamiyati tavsiflangan.

Dissertatsiyaning **“XX asr o'zbek falsafasi taraqqiyotida Ibrohim Mo'minovning o'rni”** deb nomlangan birinchi bobida XX asr o'zbek falsafasi taraqqiyotining asosiy yo'nalishlari va tamoyillari, unda milliy kadrlarning ilmiy xizmatlari hamda akademik Ibrohim Mo'minovning falsafa tafakkuridagi o'rni ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq etilgan. O'zbekiston falsafiy tafakkurida Ibrohim Mo'minov merosining ilmiy va tarixiy ahamiyati, murakkab mustabid tuzumda falsafaning asl qonuniyatlariga sodiq qolib, Abu Rayhon Beruniy, Farobiy, Ibn Sino, Amir Temur, Ali Qushchi, Bobur, Alisher Navoiy, Mirzo Bedil, Ahmad Donish merosini xolis tadqiq etganligi asoslab berilgan. Bundan tashqari akademik Ibrohim Mo'minovning milliy falsafa tarixidagi tutgan siyosiy arbob sifatidagi roli, hamda kadrlar yetishtirishdagi xizmatlari atroflicha o'rganilgan. Shuningdek, akademik Ibrohim Mo'minov ilmiy-falsafiy merosiga bo'lgan subyektiv yondashuvlar xolis tadqiq etilgan.

Tadqiqotchining fikriga ko'ra, urush davrida O'zbekiston Fanlar akademiyasining tashkil etilishi ijtimoiy fanlar, xususan, falsafa taraqqiyotiga turtki berdi. Bu davrlarda S.Valiyev, J.Boboyev, N.Miroshxina, H.Rasulov, A.Ayupov, S.Azimov, I.Mo'minov, V.Zohidovlar falsafa fani rivojiga sezilarli hissa qo'shishgan. O'zbekiston FA Falsafa va huquq instituti tashkil etilib, 1970-80-yillarda I.Mo'minov tashabbusi bilan bu institutda tabiatshunoslikning falsafiy muammolarini tahlil etuvchi metodologik seminar o'tkazish an'anaga aylangan. Mazkur seminar respublikada falsafiy bilimlar targ'iboti markazi sifatida faoliyat ko'rsatgan.

Ibrohim Mo'minov keng bilimli, nodir tafakkurli faylasuf bo'lib, O'rta Osiyoda falsafiy fikrlarni, fan, adabiyot va san'atni vujudga kelishi va rivojlanishi tarixini chuqur o'rgangan, tahlil etgan, ularga o'z ilmiy munosabatini bildirgan yirik va zabardast olim edi. Uning O'rta Osiyo xalqlari madaniy merosiga qiziqishi bugungi avlod uchun katta maktab bo'lib xizmat qiladi⁵. S.Shermuhammedovning alloma to'g'risidagi yuqorida keltirilgan fikrlari xolis va haqqoniyatga to'la mos. Akademik I.Mo'minov umri va ilmini fan rivoji, xususan, falsafa fanining rivojiga

⁵ Шермухамедов С. И. Мўминовнинг ҳаёти ва фаолияти ҳақида // Ўзбекистонда ижтимоий фанлар. – Тошкент, 1998. - №12. - Б.29.

bag'ishlagan va bu yo'lda fidoyilik ko'rsatgan zahmatkash olimlarimizdan biri edi. U kishining shaxs, ziyoli, olim, o'z xalqini chin dildan sevadigan inson, millatparvar ekanligini nafaqat kitoblari, qoldirgan boy ilmiy merosi, balki u insonni yaqindan bilgan kishilar ham e'tirof etishadi⁶.

I.Mo'minovning keng va boy bilimi, uning boy adabiy manbalarni chuqur o'rganishiga, falsafa va tarixga doir yangi ilmiy ishlarni amalga oshirishga, O'zbekistonda falsafa maktabini yaratishga, faylasuflar avlodini tarbiyalab yetishtirishga yordam bergan. I.Mo'minov fan, madaniyat va falsafa ilmiga katta hissa qo'shgan. Bu fikrni uning to'rt jildli tanlangan asarlari tasdiqlaydi. Alloma asarlarining mavzu-mundariyasi kuzatilsa, xalqparvar, millatining ertangi kuni uchun qayg'uradigan bir ziyoli inson qiyofasi ko'rinadi.

Dissertantning ta'kidlashiga ko'ra, I.Mo'minovning qadr-qimmatini kamsitmay, uning faoliyatiga munosib va xolisona baho berish, faylasufning ilmiy faoliyatidagi ikki yoqlamalik ustunlik qiluvchi ijobiy va qisman chegaralangan tomonini ko'ra olish zarur. Darhaqiqat, atoqli olim, faylasuf sifatida o'tmishning falsafiy, madaniy merosi va qadriyatlarini o'rganishga, ularni tahlil etishga buyuk hissa qo'sha oldi. Alloma boshlab bergan o'zlikni anglashga qaratilgan hatti-harakatlar bugun muhim ahamiyatga ega. Halollik va ilm-fanga hurmat tuyg'usi olimning muhim fazilati ekanligi va uning davriy taloto'plardan omon-eson olib o'tishini I.Mo'minov hayoti va faoliyati misolida ko'rish mumkin.

Fitrat, Qodiriy, Cho'lpon singari jadidlardan keyin tarix maydoniga chiqqan I.Mo'minov garchi sho'ro tuzumi, mustabid siyosat bilan murosa qilgandek ko'rinsa ham, amalda imkon qadar tarixiy haqiqatlarni xalqqa yetkazishga intilgan, millatga o'zini tanitishga uringan.

Ibrohim Mo'minovning ko'plab falsafiy g'oyalari, uning O'rta Osiyoda va undan tashqarida yashab ijod etgan ajdodlarimiz – mutafakkirlarning dunyoqarashlari to'g'risidagi qimmatli fikrlari hozirgi mustaqillik sharoitida ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q, balki yurtimiz istiqloli va ma'naviy asoslarini mustahkamlash ishiga samarali xizmat qilmoqda⁷.

Alloma O'zbekistonda ilm-fan rivojiga ko'proq hissa qo'shishga harakat qilish bilan birga, o'z atrofida fanga sadoqat bilan xizmat qiladigan ziyolilarni to'play oldi. Shakllangan kuchli jamoa esa falsafa fanining rivoji uchun kerakli ilmiy xodimlar, yetuk mutaxassislar, olimlarni yetishtirib berdi.

Insonning shaxs sifatidagi qiyofasi eng avvalo, oilada namoyon bo'ladi. O'z yaqinlariga bo'lgan munosabati orqali inson shaxsiyati, tiynati, fe'l-sajiyasi, tabiatiga baho beriladi. Olimlik va odamlilik rutbasini yonma-yon tuta olgan I.Mo'minov sulolasi havas qilsa arzigulik. Ziddiyat va qarama-qarshiliklarga to'la, siyosiy hushyorlik avjiga chiqqan, tilimiz va dinimiz asoratga solingan bir davrda ham olim xalqqa xizmat qilishni uddalay olgan zakiy inson bo'lganligini tarix isbotlab turibdi.

⁶ С.Шермухамедов И.Мўминовнинг ҳаёти ва фаолияти ҳақида //Ўзбекистонда ижтимоий фанлар №12. 1998. – Б. 30.

⁷ Жалолов А. Иброҳим Мўминов – аллома, арбоб ва инсон. // Ўзбекистонда ижтимоий фанлар. – Тошкент, 1998. - №12. - Б.34.

Ibrohim Mo‘minovning o‘zi ham ibratli oilaga asos soldi. Allomaning uch o‘g‘illari – fizika-matematika fanlari doktori, professor va bir qizlari – tibbiyot fanlari nomzodi.

Umuman, Mo‘minovlar sulolasida 50 dan ortiq fan doktorlari va nomzodlari bo‘lib, ulardan bir nafari akademik, 2 nafari O‘zR FA muxbir a‘zosi, 6 nafari Beruniy nomidagi Davlat mukofoti sohiblari, 3 nafari O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi, 2 nafari respublikada xizmat ko‘rsatgan maorif xodimlaridir. Mana shularning o‘ziyoq olimning ilm-fanga e‘tibori nihoyatda yuksak bo‘lganligini ko‘rsatadi, uning shaxsiyati, ilmiy salohiyati to‘g‘risida ma‘lum bir xulosalar chiqarishga asos bo‘ladi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Ibrohim Mo‘minov ilmiy talqinida Sharq mutafakkirlari”** deb nomlanib, unda olimning ijtimoiy-siyosiy, falsafiy qarashlarini tadqiq etishda XX asr boshi va o‘rtalaridagi sobiq Sho‘ro va O‘zbekistondagi tarixiy, madaniy sharoit, mafkura tadqiq etilgan bo‘lib, u davrda olimning yaratgan ilmiy maqolalari, anjumanlardagi so‘zlagan nutqlari, yubileylar munosabati bilan e‘lon qilgan ishlari, risola va monografiyalari muhim manba sifatida e‘tirof etgan holda tadqiqot olib borish yangidan-yangi ilmiy natijalarga erishishga yordam bergan.

Shuningdek, mazkur bobda Sharq adabiyotida “Abulmaoniy” (Ma‘nolar otasi) deb shuhrat qozongan Mirzo Abdulqodir Bedil falsafasiga bag‘ishlangan Ibrohim Mo‘minovning fundamental tadqiqoti atroflicha tahlil qilingan. Ta‘kidlash joizki, bundan yarim asr oldin yaratilgan alloma Ibrohim Mo‘minovning ilmiy-falsafiy qarashlari bugun ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q. Ushbu bobda qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy hamda falakiyot olimi Ali Qushchi hayoti va ijodiga bag‘ishlangan Ibrohim Mo‘minovning tadqiqotlari ham tahlilga tortilgan.

Dissertantning e‘tirofiga ko‘ra, Ibrohim Mo‘minovning ijtimoiy-siyosiy, falsafiy qarashlarining asosida adolatli ma‘rifiy tuzum va inson erki masalasi qo‘yilgan. Alloma asarlarining mohiyatidan shu narsa anglashiladiki, unda har qanday jamiyatni taraqqiy ettiradigan kuch – bu xalq, demokratiya, inson huquqlari va umumbashariy g‘oyalarga sodiqlikdir.

O‘tgan asrning 60-70-yillaridan boshlab O‘zbekistonda Bedil ijodiga bo‘lgan e‘tibor yanada kuchaydi. Aynan ana shu davrdan boshlab O‘zbekistonda o‘ziga xos bedilshunoslik maktabi ham shakllandi. Bu maktabning boshida O‘zbekiston Fanlar Akademiyasining akademigi, mashhur jamoat arbobi, yirik faylasuf olim Ibrohim Mo‘minov turardi. Ibrohim Mo‘minov birinchilardan bo‘lib Bedilning ijtimoiy-falsafiy qarashlari xususida bir qator maqola va risolalar yozgan, doktorlik ishini himoya qilgan.

Bedilning davlat boshqaruvi, ijtimoiy-siyosiy tuzum to‘g‘risidagi falsafiy qarashlari mutafakkirlarni ta‘sirlantirgan, ularni yangi ilmiy mushohadalarga ilhomlantirgan. Ular Bedil ijodining murakkab uslubi va ziddiyatli tomonlari, ilg‘or jihatlariga munosib baho berganlar. Jumladan, yurtimizda ham Bedil ijodi va falsafiy qarashlari bo‘yicha G‘.G‘ulom, I.Mo‘minov ilmiy tadqiqotlar olib borishgan⁸.

⁸ Шомухаммедов Ш. Форс-тожик классиклари ижодида гуманизм. - Т., 1968; Мўминов И. Мирза Бедилнинг

Shuningdek, I.Mo‘minov Abu Rayhon Beruniy ijodini tahlil qilar ekan, “Xorazmlik buyuk ensiklopedist olim” risolasida ulug‘ qomusiy alloma Abu Rayhon Beruniy yashagan davr, uning bilish metodi, fan tarixchisi sifatidagi faoliyati, tabiat va jamiyatga oid qarashlari tadqiq etilgan. Beruniy yashagan davr haqida fikr yuritilganda algebraga asos solgan, mashhur astronom va geograf Muso al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Beruniyning ustози, sinuslar teoremasini sferik uchburchaklarga nisbatan birinchilar qatori isbotlab bergan Abu Nasr Mansur ibn Ali ibn Iroq, mashhur tabiatshunos va faylasuf, tib ilmining otasi Abu Ali ibn Sino, o‘lmas so‘z san‘atkorі Firdavsiy to‘g‘risida va bu zotlarning ilm-fan rivojiga qo‘shgan hissasi haqida qiziqarli ma‘lumotlar keltirib o‘tilgan⁹. Olim har bir qomusiy allomaning tarjimai holiga tegishli qisqa, biroq ishonchli tarixiy ma‘lumotlarni bayon qilgan va ularning ilmiy faoliyatiga o‘zining aniq munosabatini bildirib, fikrlarini ularning asarlari, keng tarmoqli ilmiy faoliyatlari bilan chambarchas bog‘liqlikda ifodalagan.

Ma‘lumki, falsafada ham, adabiyot va san‘atda ham, fanning boshqa tarmoqlarida ham yetakchi ustuvor yo‘nalish – taqqoslash, qiyoslash usuli mavjud. Har bir narsaning mavjud bo‘lishi uchun uning ziddi bo‘lishi isbot talab qilmaydigan aksioma, issiq-sovuq, oq-qora, yer-osmon, halol-harom, yaxshiyomon, do‘st-dushman va hokazo. Bu sifatdan tashqari materiyada ashyoning mavjudlik kasb etishi mumkin emas va ayni chog‘da narsalarning mohiyati ularning ziddi orqali ayonlashadi, xususiyatlari va o‘ziga xosliklari namoyon bo‘ladi. Sharq va G‘arb falsafasida birdek keng qo‘llaniladigan bu metod xususiylik va umumiylik, sabab va oqibat, talab va taklif kategoriyalari bilan bog‘liq. I.Mo‘minov Beruniyning diniy va ilmiy dunyoqarashi haqida fikr yuritar ekan, olim yashagan o‘sha davrdagi hukmron mafkura va ijtimoiy-siyosiy, ma‘naviy muhit imkoniyatlaridan kelib chiqqan.

I.Mo‘minov Beruniyning ilg‘or fikrli olimlar xorazmlik matematik va astronom al-Xorazmiy, dongdor arab faylasufi al-Kindiy, eronlik mashhur kimyogar ar-Roziylarning tabiiy-ilmiy va falsafiy qarashlarining juda muhimligini ta‘kidlab, ularning har biri to‘g‘risida alohida to‘xtalib o‘tishni lozim topadi.

Biz buyuk xorazmlik olim Abu Rayhon Beruniyning vatanparvarlik va gumanizm g‘oyalaridan zavqlanamiz – deb yozadi I.Mo‘minov, – har bir olimning baxti, shod-xurramligi umuminsoniy va milliy, vatan va bashariy manfaatlarni birlikda qaray olishda deb bilgan Beruniyga chuqur hurmat va ehtiromimizni chin qalbdan izhor etamiz. Beruniyda xalq vatanparvarligi izchil gumanizm bilan uzviy bog‘langandir. Bu – mutafakkirning olijanob xislat va fazilatidir¹⁰.

Dissertant fikricha, sobiq Sho‘ro davrida respublikalardan chiqqan qahramonlar, sarkardalar, davlat arboblari, mutafakkirlarni ko‘z-ko‘z qilish, ulardan faxrlanish rasman bo‘lmasa-da ta‘qiqlab qo‘yilgan edi. Markaziy Osiyo va butun dunyoda ulug‘ bir saltanat, davlat barpo etgan Amir Temur va temuriylarning tarixda tutgan muhim roli va shavkatini ko‘rsatish uchun Ibrohim

фалсафий қарашлари - Т.; «Фан», 1958; Мирзо Бедил - Т., 1974; Шукуров Ш. Мирзо Бедилнинг поэтик мероси. -Т., 1979. Mavzuga oid barcha adabiyotlar foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatida keltirilgan.

⁹ Мўминов И. Хоразмлик буюк энциклопедист олим. - Т.,Фан, 1973. – Б. 44.

¹⁰ Мўминов И. Беруний даври ва унинг ижтимоий қарашлари // Совет Ўзбекистони 1973, июнь

Mo‘minov Ali Qushchidek olimlarning jahon tamaddunida, ilm taraqqiyosida tutgan o‘rnini isbotlab berishni o‘ziga maqsad qilib qo‘ygan. Mirzo Ulug‘bekning shogirdi bo‘lgan va “Ziji ko‘ragoniy”da 1054 ta yulduz nomi kashf etilgan bo‘lsa, bunda Ali Qushchining ham xizmatlari borligi tabiiydir. Ibrohim Mo‘minov Ali Qushchi hayoti va ijodini yoritish bilan dunyo xalqlari tarixida Markaziy Osiyo allomalarining muhim o‘rin tutganligiga alohida urg‘u berish maqsadida ushbu tadqiqotga qo‘l urgan.

Alovuddin Ali ibn Muhammad Qushchi Samarqandiy (1403 y, Samarqand — 1474 y, Istanbul) ham Ulug‘bekning eng iste‘dodli shogirdlaridan biri, o‘z davri Ptolemeyi deb shuhrat qozongan alloma. Ali Qushchi Temur qarorgohi boshlig‘ining o‘g‘li. Ulug‘bek saroyida qarchig‘aylar boqqani uchun uni “Qushchi” deyishgan. Ali Qushchi boshlang‘ich ma‘lumotni Samarqandda oladi, o‘z ma‘lumotini oshirish uchun 1414-yilda Eronning Kirmon shahriga boradi va u yerdagi madrasada tabiiy fanlarni, xususan, falakiyot, riyoziyotni puxta o‘rganadi, 1417-yilda Samarqandga qaytadi. Bu vaqtda Samarqandda Ulug‘bek madrasasi qurilayotgan edi. U Ulug‘bek rasadxonasini qurish ishlarida ham faol qatnashadi. Shu davrda “Hisob risolasi” va “Astronomiya risolasi” asarlarini yozadi va ilm ahli orasida katta obro‘ qozonadi. 1428-yilda Ulug‘bek rasadxonasi ishga tushirilgach, bu yerda Ulug‘bek rahbarligida kuzatuvlar olib boradi, risolalar yozishda davom etadi. Ulug‘bekning “Ziji jadidi Ko‘ragoniy” asari yozilishida Ali Qushchining ham hissasi katta. 1438-yilda Ulug‘bek Ali Qushchini Xitoy saltanatiga elchi qilib yuboradi, u Xitoydan qaytib kelgach, “Matematika va astronomik jug‘rofiya” asarini yozadi.

Dissertatsiyada I.Mo‘minov tadqiqotlarida Ali Qushchi asarlari qo‘lyozmalari O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti, Dushanbe, Sankt-Peterburg, Mashhad, Istanbul, Oksford, Leyden (Niderlandiya) va Aya-So‘fiyo (Turkiya) kutubxonalarida saqlanayotganligi¹¹ va bu olimning ilmiy faoliyati, asarlarning ayrimlari tadqiq etilganligi haqida ma‘lumotlar berilgan¹².

Uning 1403-1424-yillarda yaratilgan “Risolayi dar falakiyot” asarini o‘rgangan I.Mo‘minov mazkur risola O‘zbekiston Fanlar akademiyasining Sharqshunoslik institutida 9276-raqamli qo‘lyozmalar ichida va 3356-raqam bilan hisobga olingan kitobda ekanligini qayd etgan. Bu kitob asarning boshlang‘ich qismda aytilganidek, muqaddima, ikki maqola, ikki bo‘limdan iborat. Muqaddimaning o‘zi ham ikki qismga ajratilgan. Birinchi qismda handasa bilimining asoslari – nuqta, chiziq, sath, to‘g‘ri, egri chiziqlar, mutasavi, to‘g‘ri mutasavi chiziqlar, doira tushunchalari batafsil izohlangan. Har bir tushuncha to‘g‘risida mukammal ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Ibrohim Mo‘minov ma‘naviy jasorati va milliy taraqqiyot”** deb nomlanib, ushbu bobda Ibrohim Mo‘minov ma‘naviy jasorati va milliy taraqqiyot muammolari atroflicha tahlil etilgan. Bunda asosiy

¹¹ Qarang: Али Кушчи: Астрономияга оид рисола - Т., 1968.

¹² Qarang: Аҳмедов Б. Улуғбек. - Т., 1965; Носиров А. Али Кушчи. - Т., 1964; Аҳадова М. Ўрта Осиёлик машхур олимлар ва уларнинг математикага доир ишлари. - Т., 1983; Абдурахмонов А. Улуғбек академияси. - Т., 1993.

e'tibor Amir Temur shaxsi bilan bog'liq holda davr va tuzum, siyosat aqidalarini inobatga olib, buyuk davlat asoschisi va sarkarda, mutafakkir Amir Temurning tarixdagi rolini hamda jahongirlik shuhratini har tomonlama isbotlab bergan olimning "Amir Temurning O'rta Osiyoda tutgan o'rni va roli" asari atrofida fikr yuritilgan. Shuningdek, Ibrohim Mo'minovning Amir Temur shaxsiga munosabati Ali Yazdiyning "Zafarnoma", Rui Gonsales de Klavixoning "Kundalik"lari, Shomiyning "Zafarnoma" asarlari qiyosida o'rganilgan. Bundan tashqari mazkur bobda jadidchilikning ilk poydevorini qo'ygan mutafakkir Ahmad Donishning taraqqiyparvarlik g'oyalarini o'rganish va targ'ib qilishdagi I.Mo'minovning tarixiy xizmatlariga ham ilmiy baho berilgan. Shu bilan birga I.Mo'minov ma'naviy jasoratining bugungi yoshlar kamolotidagi ahamiyati asoslab berilgan.

Dissertantning fikricha, Uchinchi Renessans poydevorini yaratishda, yosh avlodni barkamol va yetuk qilib tarbiyalash uchun ular ong va tafakkurida o'tmish ajdodlar bilan bog'liq ehtirom, faxr hissini yanada chuqurroq singdirish lozim. Negaki, milliylik zaminida unib-o'smagan har qanday iste'dodning mamlakat va millatga nafi tegmaydi.

I.Mo'minov Amir Temur haqida yozar ekan, tarixiy vaziyatni inobatga olgan edi, albatta. U masalaga xolis yondashib, o'rta asrlarning har bir saltanat sohibi kabi Amir Temur ham o'zining hukmronligini tan olishni istamagan, bosh egmagan erkparvar, o'z xalqi, vatani ozodligi uchun kurashgan xalqlarga nisbatan shafqatsizlik qilganligi, uni faqat insonparvar hukmdor sifatida tasvirlash, sohibqiron shaxsini ideallashtirish ekanligiga alohida e'tibor bergan. Zero, buyuk tarixiy shaxslarni ularni voyaga yetkazgan tarixiy sharoitdan ajratib bo'lmaydi, ayniqsa, ularning tarixdagi o'rni va roliga bugungi kun nuqtayi nazaridan kelib chiqib, hozirgi davr mezonlariga tayanib baho berish xato va zararli, tarixni buzib ko'rsatishdir.

Dissertant I.Mo'minov o'z tadqiqotlarida Amir Temur hukmronlik qilgan davrda olib borilgan obodonchilik ishlarini uning xalqparvar, insonparvar hukmdor bo'lganligidan dalolat beruvchi fazilat, deb tushuntiradi. I.Mo'minov Amir Temurning handasa, me'morlik, astronomiya, adabiyot, tarix, musiqa kabi qator fanlar bo'yicha yetuk olimlarni huzuriga chorlab, ular bilan suhbat qurishni odatga aylantirganligini yozadi va buning sabablarini tushuntirib beradi hamda o'z fikrlariga "yuqoridagilardan ma'lum bo'ladiki, ushbu sohada ham tabiiy bilim tarixini o'rganuvchilar oldida qanchadan-qancha o'rganilmagan masalalar bor, alohida ahamiyatli ilmiy jasorat maydoni mavjud"¹³, - deb xotima yasaydi.

Olim Sharofiddin Ali Yazdiyning yozganlarini tahlil qilar ekan, masalaga o'z munosabatini bildiribgina qolmay, shu yo'nalishda bugungi fan oldida turgan vazifani aniq ko'rsatib o'tadi.

I.Mo'minov Amir Temurning tarixiy xizmatlarini faylasuf sifatida teran anglagan, shu yurtning zahmatkash bir ziyolisi, olimi sifatida bu ulug' insonning nomini oqlash uchun bor kuch-g'ayratini ayamagan edi. Tabiiyki, olimning Amir Temur haqidagi monografiyasi o'zligini anglagan, qalbining tub-tubida milliy hislar tirik bo'lgan jamoatchilik tarafidan yaxshi kutib olindi. Biroq akademik

¹³ Мўминов И. Амир Темурнинг Ўрта Осиё тарихида тутган ўрни ва роли. - Т.; Фан. 1993. –Б. 57.

M.Xayrullayev yozganidek: "...ayrim shaxslar Ibrohim Mo‘minovning bu ishlaridan unga qarshi kurash yo‘lida foydalanish harakatiga kirishdilar. Kitobcha I.M.Mo‘minovni Temur faoliyatini "ideallashtirish", unga g‘ayriilmiy yondashish, siyosiy-g‘oyaviy xatoga yo‘l qo‘yishda aybdor qilib ko‘rsatishga bo‘lgan urinishlarning avj olishiga sababchi bo‘ldi. Bu ishga Moskvadagi ayrim ilmiy-tekshirish institutlarining rahbarlari, tarixchilar, hatto KPSS Markaziy Komitetidagi ba‘zi rahbar xodimlar ham jalb etildi"¹⁴. Darhaqiqat, 1978-yilda I.Mo‘minovga katta minbarlar, yuqori doiralardan hujum boshlangan, allomaning bu kitobi keskin tanqid ostiga olingan, muallif tarixni soxtalashtirish, Amir Temurni ideallashtirishda ayblangandi. Davlat miqyosiga ko‘tarilgan bu masalaning zamirida mustabid mafkura manfaatlariga mos kelmaydigan milliy g‘oya, milliy g‘urur, millat sha‘ni, o‘zligi mavjud edi. Qo‘l ostidagi xalqlarni qullik iskanjasida saqlab turishni istagan, xalqlar turmasi deb nom olgan qizil imperiya siyosatiga zid bunday asarni yozish uchun jadidlardek yurtparvar, xalqsevar bo‘lish kerak edi. Shu o‘rinda I.Mo‘minovning Samarqandda Fitrat, A.Sa‘diy kabi zotlar bilan bir safda turib ishlaganligi, bu insonlardan juda ko‘p narsani o‘rganganligi, albatta, jadidlarning maqsad, orzu, maslak, g‘oyalaridan xabardorligi va ularga xayrixohligini eslash kerak. Agar shunday bo‘lmaganida I.Mo‘minov ehtimol, Xorazmiy, Forobiy, Beruniy, ibn Sino, Amir Temur, Ali Qushchi, Navoiy, Bedil, Donish, Furqat ijodi, qarashlarini o‘rganmagan, bunday siyosatga xilof ishlarga rahnamo va tashabbuskor bo‘lmasdi.

Akademik Ibrohim Mo‘minovning bunday hatti-harakatlari o‘sha sharoitda o‘z davri uchun katta jasurlik, o‘ta keskinlik, hech bir olim jur‘at qilolmagan vatanparvarlik deb baholangan. I.Mo‘minovning ana shunday vaziyatda Amir Temurni oqlab chiqishi, albatta, ulkan jasorat bo‘lgan.

Shuningdek, dissertant mazkur bobda akademik Ibrohim Mo‘minovning Ahmad Donish ma‘naviy merosi bo‘yicha olib borgan ilmiy faoliyatiga ham alohida to‘xtalib o‘tgan. "Ahmad Donishning, - deydi akademik Ibrohim Mo‘minov, - Fuzuliyning ozarboyjon tilida yozilgan she‘rlaridan olgan parchalari juda e‘tiborli. Bu esa Donishning Fuzuliy g‘oyalari, uning astronomiya haqidagi fikrlari bilan qiziqqanidan dalolat beradi"¹⁵.

